

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**J.Sultonov**

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili ..... 224

**M.A.Boltaboyev**

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati ..... 234

**Sh.B.Jumayeva**

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat ..... 239

**M.R.Sodiqova**

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) ..... 244

**A.X.Nigmatov**

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari ..... 251

**M.B.Nazirov**

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri ..... 257

**B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev**

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi ..... 260

**M.A.Maxmudov**

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati ..... 266

**I.B.Boxodirov**

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi ..... 270

**J.Sultonov**

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi ..... 273

**O.B.Nizomiddinov**

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) ..... 279

**O.H.Jaynarov**

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) ..... 284

**O.M.Normatov**

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida ..... 289

**Y.A.Shukurillayev**

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari ..... 293

## ILMIY AXBOROT

**Z.X.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar ..... 297

**X.J.Isomiddinov**

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari ..... 300

**M.B.Nazirov**

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri .... 304



УО'К 94(510:517)"12/13

**CHINGIZXON VA JIN DAVLATI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK VA HARBIY  
MUNOSABATLARNING TARIXIY TAHLILI**

**ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ И ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ  
МЕЖДУ ЧИНГИСХАНОМ И ДИНАСТИЕЙ ЦЗИНЬ**

**A HISTORICAL ANALYSIS OF DIPLOMATIC AND MILITARY RELATIONS BETWEEN  
GENGHIS KHAN AND THE JIN DYNASTY**

Sultonov Javohir 

Farg'ona davlat universiteti strategik rivojlanish va xalqaro reytinglar bo'limi boshlig'i,  
mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Chingizxonning Jin davlati bilan olib borgan harbiy va diplomatik munosabatlari Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyoning geosiyosi tarixida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola Chingizxonning Jin davlatiga qarshi yurishlari, diplomatik muzokaralar va elchilar orqali amalga oshirgan siyosiy strategiyalarini tahlil qiladi. Rashid ad-Din, H. Desmond Martin, Paul Ratchnevsky kabi tarixchilar hamda "Yuanshi" kabi qadimiy manbalardan foydalaniilib, Jin sulolasining ichki zaifliklari va Chingizxonning harbiy-diplomatik muvaffaqiyatlari yoritiladi. Tadqiqot Jin va mo'g'ullar o'tasidagi munosabatlarning tarixiy ahamiyatini va ushbu munosabatlarning mintaqaviy ta'sirini chuqur o'rganishga imkon beradi.*

**Аннотация**

*Военные и дипломатические отношения между Чингисханом и династией Цзинь играют ключевую роль в геополитической истории Восточной и Центральной Азии. В статье рассматриваются военные походы Чингисхана против династии Цзинь, дипломатические переговоры и использование посольств как элемента политической стратегии. Основываясь на трудах Рашида ад-Дина, Х. Десмонда Мартина, Пола Рачневского и древнекитайских хрониках, таких как "Юаньши", исследование выявляет внутренние слабости династии Цзинь и военно-дипломатические успехи Чингисхана. Работа подчеркивает историческое значение этих отношений и их влияние на региональные процессы.*

**Abstract**

*The military and diplomatic interactions between Genghis Khan and the Jin Dynasty are pivotal in the geopolitical history of East and Central Asia. This article examines Genghis Khan's campaigns against the Jin Dynasty, diplomatic negotiations, and the use of envoys as a critical political strategy. Drawing on the works of Rashid al-Din, H. Desmond Martin, Paul Ratchnevsky, and ancient Chinese chronicles like Yuanshi, the study explores the internal weaknesses of the Jin Dynasty and Genghis Khan's military-diplomatic successes. The research highlights the historical significance of these relations and their impact on regional dynamics.*

**Kalit so'zlar:** Chingizxon, Jin davlati, harbiy-diplomatik strategiya, elchilar faoliyati, tarixiy kontekst, geosiyosiy tahlil.

**Ключевые слова:** Чингисхан, династия Цзинь, военная и дипломатическая стратегия, деятельность посольств, исторический контекст, геополитический анализ.

**Key words:** Genghis Khan, Jin Dynasty, military-diplomatic strategy, envoy diplomacy, historical framework, geopolitical analysis.

**KIRISH**

Chingizxon va Jin (Jurchen) davlati o'tasidagi munosabatlarni nafaqat harbiy to'qnashuvlar, balki murakkab diplomatik jarayonlar bilan ham tavsiflanadi. Ayniqsa, Chingizxon tomonidan Jin sulolasiga jo'natilgan elchilar va ularning missiyalari mo'g'ullar tomonidan olib borilgan siyosiy bosimni ochib beradi. Jin imperiyasi (1115–1234) jurchenlar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, Sharqiy Osiyoda etakchi mavqega ega bo'lgan. Biroq ichki nizolar, tashqi ittifoqlarning beqarorligi va mo'g'ullar tomonidan olib borilgan strategik yurishlar Jin davlatining zaiflashishiga olib kelgan.

Mazkur tadqiqotda Jin sulolasi va mo'g'ullar o'tasidagi munosabatlarning harbiy-diplomatik jihatlari tahlil qilinib, Chingizxonning siyosiy strategiyasi, elchilarining roli va harbiy yurishlarning Jin imperiyasi barbob bo'lishidagi ta'siri o'rganiladi. Tarixiy manbalarga asoslanib, mo'g'ullarning Shimoliy Xitoydagi hukmronligiga olib kelgan omillar aniqlanadi.

## TARIX

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot Chingizxon va Jin sulolasi o'rtasidagi harbiy-diplomatik munosabatlarni har tomonlama yoritish uchun turli metodologik yondashuvlarni qo'llaydi:

Manboshunoslik yondashuvi – Jinshi kabi Xitoy solnomalari hamda Rashid ad-Dinning Jami' al-Tavorix asarlari asosida Jin saroyi siyosati va mo'g'ullar tomonidan jo'natilgan elchilar faoliyati tahlil qilindi.

Tarixiy-taqqoslash metodi – Chingizxon va Jin hukmdorlari tomonidan yuborilgan elchilar soni turli tadqiqotchilar (David Morgan, H. Desmond Martin, René Grousset) tomonidan keltirilgan raqamlar asosida solishtirildi.

Struktura-tahлиliy yondashuv – Chingizxonning harbiy yurishlari, iqtisodiy manfaatlari va diplomatik strategiyalari qanday o'zaro bog'liq ekani o'rganildi.

Siyosiy tahlil – Jin sulolasining ichki siyosiy nizolari va mo'g'ullar tomonidan qo'llanilgan diplomatik vositalar (ittifoqlar, elchilar, razvedka) baholandi.

Geosiyoziy yondashuv – Xitoy shimalidagi geografik sharoit va mo'g'ullar tomonidan olib borilgan yurishlarning geosiyoziy ahamiyati tahlil qilindi.

Ushbu metodlarning kombinatsiyali qo'llanilishi Jin sulolasi va mo'g'ullar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Chingizxonning Jin sulolasiga qarshi yuritgan harbiy va diplomatik strategiyalarini o'rganishda turli ilmiy manbalar muhim dalillarni taqdim etadi. H. Desmond Martin (The Rise of Chingis Khan and His Conquest of North China) va Paul Ratchnevsky (Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy) mo'g'ullarning harbiy yurishlari bilan diplomatik faoliyatining o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, Chingizxonning harbiy muvaffaqiyatlarini raqiblarining ichki zaifliklaridan foydalanish bilan bog'laydi. Ayniqsa, mo'g'ullarning musulmon savdogarlar va elchilar orqali razvedka olib borishi, ularning Jin davlatiga qarshi olib borgan bosqinchilik yurishlarini yanada samarali qilishini ko'rsatadi.

Bu nuqtai nazar Rashid ad-Dinning Jami' al-Tavorix asaridagi ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. U mo'g'ullarning Jin sulolasiga nisbatan olib borgan elchilik missiyalarini tafsilotlari bilan yoritib, Chingizxon diplomatiyasining asosiy jihatlarini ko'rsatib beradi. Jin sulolasining mo'g'ullar bilan bo'lgan munosabatlarda diplomatik va harbiy bosimni muvozanatlashga uringani Rossabi (The Jurchens and the Jin Dynasty) va Igor de Rachewiltz (Personnel and Personalities in North China) tadqiqotlarida ham tasdiqlangan bo'lib, mualliflar Jin sulolasining siyosiy inqirozi va mo'g'ullarga qarshi kurashdagi strategik xatolarini tahlil qiladi.

Mo'g'ullar imperiyasining Jin sulolasiga qarshi yurishlari va ushbu harbiy-siyosiy jarayonlarning kengroq kontekstdagi ahamiyati Rene Grousset (The Empire of the Steppes) va Michal Biran (Makers of the Muslim World: Chinggis Khan) asarlarida yoritilgan bo'lib, ular Jin davlatining ichki barqarorligining zaiflashishi mo'g'ullarning g'alabasi uchun muhim omil bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv Jack Weatherford (Genghis Khan and the Making of the Modern World) tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib, mo'g'ullarning harbiy va diplomatik muvaffaqiyatlari imperianing uzoq muddatli strategik rivojlanishiga asos bo'lganini ta'kidlaydi.

Shunday qilib mayjud ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Chingizxonning Jin sulolasiga qarshi yuritgan harbiy va diplomatik siyosati yagona tizimli strategiyaning natijasi bo'lib, mo'g'ullar harbiy kuch bilan birga diplomatik manipulyatsiyalar va razvedkadan ham faol foydalanishgan. Bu esa Jin sulolasining ichki zaifliklarini chuqurlashtirib, mo'g'ullarning Shimoliy Xitoydagagi hukmronligini o'rnatishiga zamin yaratgan.

Chingizxon Xia davlatidan keyin o'ziga bo'y sundirish maqsadida Jin davlatiga hujum qilishga tayyorlanadi. Jin imperiyasi (1115–1234) Sharqi Osiyoda muhim o'r'in tutgan davlat bo'lib, jurchen xalqi tomonidan tashkil etilgan. Ular Liao sulolasini ag'darib, Song sulolasini xiroj to'lashga majbur qilgan. Jin hukmdorlari o'zlarini "Shimoliy Osmon O'g'li" deb atashgan[1].

Jin sulolasi hech qachon Mo'g'ulistonni bosib olmagan, lekin ular "barvarlarni boshqa barvarlar yordamida nazorat qilish" yoki "bo'lib tashla va hukmronlik qil" strategiyasini qo'llashgan. Ushbu qadimgi xitoylik yondashuv ular uchun qabilalar o'rtasida kuch muvozanatini ta'minlash vositasi bo'lgan[2].

Masalan, Jinlar turli qabilalar bilan ittifoqlar tuzib, keyinchalik bu qabila kuchayib ketganda boshqa qabilalarni qo'llab-quvvatlagan. Chingizxon avval Jin imperatorining suverenitetini tan olib, unga xiroj to'lagan va bu xizmatlari uchun cha'ut-kuri unvoni bilan taqdirlangan edi. Chingizxon

barcha mo'g'ullarning etakchisiga aylangan bir vaqtda, Jin imperatori uchun Mo'g'ulistonning yangi kuchli markazlashgan siyosiy qudratini qabul qilish qiyin bo'lishi ehtimoli mavjud edi. Chegarada bunday kuchli etakchining paydo bo'lishi Jin sulolasi uchun doimiy tahdid hisoblangan[3].

Bu paytga kelib Jin bilan munosabatlar urush yoqasiga kelib qolgan edi. Bunga sabab esa 1208-yilda Chingizxon huzuriga kelgan imperatorini amakisi Vanyan Yongji yaxshi kutib olmagani va o'zini Xitoyning vassali sifatida ko'rmasligini aytgani bo'ldi. Keyingi yili imperator vafot etganida, Yongji uning o'rnini egalladi. U o'zini Vei Shao Vang (1209–1213-yillar hukmronlik qilgan) deb e'lon qildi. Uning hokimiyatga kelishi natijasida ikki o'tradagi munosabatlar yana ham yomonlashdi.

Shuningdek, Mataku (1189–1208) davrida Chingizxon unga qaysidir ma'noda amalda bo'lmasada rasman vassal edi. 1208-yili Mataku vafot etgandan keyin uning taxtiga Yongji ega chiqqandan keyin bu vassalik ham rasman tugatildi[4].

Chingizzonning Jin imperiyasiga qarshi yurish boshlash qarori Jin davlatidan olingen ma'lumotlar bilan uzviy bog'liq edi. Ushbu qarorning shakllanishiga Xitan vakili Yelu Axay bilan ilk uchrashuv muhim turki bo'lgan. Axay o'zining til bilish qobiliyati tufayli Jin tomonidan Ong-xon saroyiga elchi sifatida yuborilgan edi. Chingizxon bilan birinchi muloqot chog'ida Axay uning kuchli va ta'sirchan shaxsiyati oldida hayratda qolib, darhol o'z xizmatlarini taklif qildi[5].

Vei Shao Vang o'zining taxtga o'tirganligini rasman e'lon qilish uchun Chingizxonga maxsus elchilarini yubordi. Elchilar Chingizxonidan yangi imperatorni tan olish belgisida hurmat bilan ta'zim qilishni talab qilishdi. Ushbu talab Jin sulolasining o'zini Markaziy Osiyo va Shimoliy Xitoydag'i eng yuksak siyosiy hokimiyat egasi sifatida ko'rsatishga bo'lgan urinishlaridan biri edi. Ammo Chingizxon bu talabni keskin rad etdi. U yangi imperatorning kimligini so'rab, elchilardan javob oldi. Vei shahzodasi Yuin-chi Jin taxtini egallaganini eshitgach, Chingizxon bu ma'lumotni siyosiy va diplomatik jihatdan haqoratli deb qabul qildi. U janubga qarab tupurib, quyidagi so'zlarini aytdi:

"Men O'rta Qirollik hukmdorini osmondan yuborilgan ulug' zot deb o'ylagan edim. Qanday qilib Vei shahzodasidek ojiz inson hukmdor bo'lishi mumkin? Nega unga ta'zim qilay?[6]"

Ushbu so'zlar orqali Chingizxon nafaqat Jin sulolasining yangi hukmdorini haqorat qildi, balki sulolaning xalqaro siyosiy mavqeini ham rad etdi. Bu harakat Jin sulolasining o'zini Shimoliy Xitoydag'i ramziy hukmdor sifatida ko'rsatish harakatlarga to'g'ridan-to'g'ri qarshilik edi. Chingizzonning bu harakati sulolaning siyosiy zaifligini ochib berib, uning xalqaro mavqeiga jiddiy zarba berdi. Chingizzonning Jin sulolasining ramziy hokimiyatini rad etishi uning Shimoliy Xitoya o'z ta'sir doirasini kengaytirish istagini aniq ifodalagan qadam edi. Bu harakat faqatgina ramziy rad etish emas, balki Chingizzonning Jin sulolasiga nisbatan o'zini tengsiz kuch sifatida ko'rsatishga bo'lgan urinishining ochiq namoyishi edi. Jin sulolasi uchun esa bu mojarolarning xalqaro mavqeini zaiflashtirdi, ichki siyosiy barqarorligini yanada chayqadi va xalqaro siyosiy maydonda o'z obro'siga katta zarba berdi.

Chingizzonning Jin imperatorini nafaqat rad etishi, balki uni ochiqdan-ochiq haqorat qilishi – janubga qarab tupurib, imperatorni "ojiz va qibiliyatsiz hukmdor" deb atashi – Jin sulolasining ramziy hokimiyatini butkul rad etish belgisidir. Ushbu harakat nafaqat diplomatik qoidalarga zid edi, balki Jin sulolasining xalqaro mavqeini zaiflashtiruvchi kuchli siyosiy xabar edi. Chingizxon bu orqali Jin sulolasini qabul qilmasligini va o'zini xalqaro maydonda yangi kuch sifatida ko'rsatishni maqsad qilganini namoyish etdi.

Jin sulolasi uchun bu diplomatik mojarolarning faqat xalqaro obro'sini yo'qotish bilan cheklanib qolmadidi. Jin hukmdori Vei Shao Vang Chingizzonning haqoratli bayonotlarini elchilar orqali to'liq eshitmagan holda, Chingizxonni xiroj olib kelganida yo'q qilishni rejalaشتirgan edi. Ushbu qaror Jin sulolasining siyosiy vogelikni noto'g'ri baholaganini va mohir strategiyaga ega bo'limgaganligini ko'rsatadi. Jin imperatori, agar elchilar orqali Chingizzonning haqoratli bayonotlarini aniq va to'liq bilganida, bu bayonotlarning sulola xalqaro mavqeini ochiqdan-ochiq rad etganini va kelajakdag'i harbiy mojaroning muqarrarligini anglab etgan bo'lardi. Ammo Jin elchilari Chingizzonning so'zlarini hukmdorga yumshatib etkazgan bo'lishi mumkin, chunki ular bu haqoratli bayonotlar hukmdorni Chingizxonqa qarshi bevosita urush boshlashga majbur qilishi mumkinligini tushungan edilar.

Elchilarning bu ehtiyyotkorlik bilan yondashuvi Jin sulolasining ichki siyosiy muammolarini ham aks ettiradi. Jin sulolasi rahbariyati Chingizzonning so'zlaridan kelib chiqadigan siyosiy oqibatlarini noto'g'ri baholadi va bu sulola tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keldi. Chingizzonning haqoratli so'zlarini aniq ifoda etib etkazmaslik, Jin sulolasi rahbariyatining Chingizxonni xato baholashiga va o'z mudofaa strategiyasini noto'g'ri shakllantirishiga sabab bo'ldi.

## TARIX

Jin hukmdori Chingizxonning haqoratini to'liq bilmagan holda, uni xiroj olib kelganida yo'q qilishni rejalashtirdi[7].

Chingizxonning haqoratli bayonotlarini to'liq anglay olmagan Jin sulolasiga, o'z mudofaa strategiyasida sezilarli zaiflik ko'rsatdi. Jin sulolasiga rahbariyati elchilarning axborot etkazishda qilgan xatosi sababli Chingizxonga qarshi o'z mudofaasini kuchaytira olmadi. Ushbu holat xalqaro diplomatiyada ishonchli va aniq ma'lumot etkazishning qanchalik muhim ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Elchilarning diplomatik zaifligi va Jin sulolasining strategik noto'g'ri qarorlari, oxir-oqibat, Chingizxonning siyosiy va harbiy g'alabasini ta'minlagan muhim omillardan biri bo'ldi.

Bundan tashari, 1208-yilda Chin davlatining yuqori martabali amaldorlari – Li Chiao, Vu Fenchjen, Bay Lun va Tian Guangmin – mo'g'ullarga ochib o'tishdi. Ushbu yuqori lavozimli amaldorlarning ochishi Chin davlatining ichki siyosiy zaifliklarini ochib berdi va Chingizxonni Chin imperiyasiga qarshi yurish rejasini kuchaytirishga undadi[8].

Chingizxon o'zining Jin sulolasiga qarshi harbiy yurishini nafaqat strategik zarurat sifatida, balkiadolat va oilaviy qasos sifatida ham ko'rsatishni maqsad qildi. U bu tajovuzni xalqaro maydonda oqlash va o'zining harakatlarini qonuniylashtirish uchun tarixiy ziddiyatlarga murojaat qildi. Bu qasos XII asrda Jin sulolasiga tomonidan Chingizxonning qarindoshlari Ambag'ayni Jurchenlar (Jin saroyi) yog'och eshakka mixlab, og'riqli o'limga duchor qilishadi[9].

## NATIJA VA MUHOKAMA

Bizning fikrimizcha, Chingizxonning Xitoya yurishlari diniy rituallarga ham asoslangan. Ushbu yurishlarning boshlanishida u Abadiy Osmonga bo'lgan ishonchini kuchli ifoda etgan. Rashid ad-Dinning yozishicha, Chingizxon jang maydoniga chiqishdan oldin bir tog' cho'qqisiga chiqib, Abadiy Osmonidan yordam so'rangan va quyidagi so'zlarni aytgan: "Ey Abadiy Osmon! Sen bilasan va qabul qilasan, bu mojaroni Altan Xon boshladi. U hech qanday sababga ko'ra O'kin-Barkak va Ambakoyxonni o'ldirdi. Ular mening otam va bobomning qarindoshlari edi va men ularning qoni uchun qasos izlayman[10]."

Ushbu so'zlar Chingizxonning diniy motivatsiyasi va qasos olish maqsadini ochib beradi. Yana bir qadimgi sharq tarixshisi Juzjani esa Chingizxonning Xitoy yurishlari oldidan butun mo'g'ul xalqi bilan birgalikda diniy rituallarni bajarganligini qayd etadi. Unga ko'ra, Chingizxon bir to'n chodirda, kamarini bo'yninga ilgan holda, Abadiy Osmon bilan muloqot qilgan. Shu vaqt ichida barcha mo'g'ul oilalari — erkaklar va ayollar alohida guruhlarga ajralib — uch kun va uch tun davomida boshyalang, ro'zador holda ibodat qilishgan. To'rtinchi kuni Chingizxon chodirdan chiqib, xalqqa shunday e'lon qilgan: "Osmon menga g'alaba va'da qildi. Endi biz Altan Xonga qarshi qasos olishga tayyorgarlik ko'rishimiz kerak[11]."

Bu rituallar Chingizxonning xalqini ruhiy jihatdan safarbar qilishi va uning ilohiy missiya sifatida qaralgan urushlariga ma'nnaviy asos bo'lganini ko'rsatadi.

1211-yil bahorida mo'g'ullarning an'anaviy yig'ini bo'lgan qurultoyni chaqirdi. Ushbu yig'ilihsning maqsadi Jinga qarshi urush to'g'risida qaror qabul qilish edi. Mo'g'ul urf-odatlarda qurultoya qatnashish ixtiyoriy bo'lib, etarlicha ishtirokchilarning yo'qligi har qanday qarorga veto qo'yishi mumkin edi. Bunday demokratik yondashuv jamiyatning har bir a'zosi qarorlar qabul qilish jarayonida o'z so'ziga ega bo'lishini ta'minlab, ularning urush sabablarini tushunishi hal qiluvchi ahamiyatga ega edi[12].

Chingizxon o'ziga qulay siyosiy sharoit yaratilganini anglab, ushbu vaziyatni mohirona ishlatdi. Ushbu yurishni rejalashtirishda biz Chingizxon nafaqat qochqinlardan olingan ma'lumotlarga tayanib qolgan, balki turli xil ma'lumotlarni solishtirib, bu yurishga puxta tayyorgarlik ko'rganini ko'rishimiz mumkin. U maxsus ma'lumot etkazuvchilar va agentlardan samarali foydalangan, shuningdek, musulmon savdogarlar, xususan, Ja'far kabi shaxslar orqali muhim razvedka ma'lumotlarini olgan. Bu uning harbiy strategiyasining nafaqat harakatlar, balki ma'lumotga asoslangan rejalashtirish ustunligini ham ko'rsatadi[13].

Bu savdogarlar Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo yo'llarini boshqarib, Chingizxon uchun nafaqat iqtisodiy sheriklar, balki muhim razvedkachilar sifatida xizmat qildilar. Jin davlati haqidagi ma'lumotlarga ko'ra Jin davlati bu paytga kelib 55,5 million aholi bilan Xitoydagi enga katta davlat edi. Lekin hukmron tabaqa jurjenlar juda ozchilikni tashkil qilar, ya'ni 4,8 milliondan kam aholini o'z ichiga olar edi. Jurchen qabila boshlig'i Aguda (1113—1123 hukmronlik qilgan) Jin sulolasiga asos solgan edi. U Qoraxoniylar qo'lida xizmat qilgani uchun ham Jin davlat tizimi Qoraxoniylar davlat tizimi asosida olib borilar edi[14].

Jin sulolası XII asr oxiri va XIII asr boshlarida mintaqadagi eng qudratli davlatlardan biri sifatida faoliyat olib borgan bo'lsa-da, ichki iqtisodiy va ijtimoiy muammolar sulolaning barqarorligiga putur etkazayotgan edi. Ayniqsa, 1194-yilda Sariq Daryoning toshishi bu muammolarni yanada kuchaytirdi. Daryo damba devorlarini yorib, Shandong provinsiyasini suv ostida qoldirdi va o'z yo'nalishini shimoldan janubga o'zgartirdi. Ushbu tabiiy ofat qishloq xo'jaligi erlarining yo'q qilinishiga va oziq-ovqat ta'minotining pasayishiga olib kelgan.

Ushbu iqtisodiy muammolar 1210-yildan boshlangan ocharchiliklar bilan yanada kuchaydi va aholining ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini keskin yomonlashtirdi[15].

Biroq, ichki iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Jin sulolası harbiy jihatdan kuchli edi. Jurjen zodagonlari harbiy byurokratiyadan er egalari aristokratiyasiga o'tish jarayonida bo'lishlariga qaramay, ular va oddiy askarlar o'zlarining jangovar mahoratini saqlab qolgan edi Biz shuni kuzatishimiz mumkinki, Jin imperiyasi o'sha davrda katta harbiy qudratga ega bo'lgan davlat edi. Chingizxon o'z hujumini boshlaganida, Jin armiyasi umumiylis hisobda taxminan 600,000 askardan iborat bo'lgan. Ularning 120,000 nafari mo'g'ul otliq qo'shinlariga teng darajadagi otliq kamonchilar edi, qolganlari esa taxminan 500,000 piyoda askarlarni tashkil etgan. Bunga qarshi Chingizxonning qo'shini esa atigi 65,000 askardan iborat bo'lib, unga qo'shimcha tarzda 10,000 nafar Ongut yordamchi kuchlari ham mavjud edi. Ushbu raqamlar bizga Jin armiyasining harbiy salohiyatining kattaligini va Chingizxonning u bilan jang qilishdagi strategik jasoratini yaqqol namoyish etadi[16].

Biz Chingizxonning Jin sulolasiga qarshi harbiy yurishini o'rghanar ekanmiz, ushbu jarayonning muhim bosqichlaridan biri sifatida uning 1210-yilda Jin imperatoriga qarshi urush boshlash qarorini alohida ta'kidlashimiz lozim. Chingizxon o'sha paytda Jin imperatoriga to'lanihi lozim bo'lgan yillik xirojdan bosh tortdi.

Yuanshi manbasida ushbu voqeа quyidagicha tasvirlangan:

"Jin imperatori Vey shahzodasi Yunjini xirojni olish uchun Jingjouga (Guihuachengning shimolida) yubordi. Chingizxon shahzodani qabul qildi, lekin to'liq marosim bilan hurmat ko'rsatishdan bosh tortdi. Shundan so'ng Yunji saroya qaytib, Chingizxonga qarshi qo'shin yuborishni talab qildi. Shu vaqtga kelib imperator Chjaotszun vafot etdi[17]."

Mazkur voqeа Chingizxon va Jin sulolası o'rtaisdagi qarama-qarshilikning kuchayishi va keyingi harbiy ziddiyatlarga zamin yaratgan muhim siyosiy qadam bo'lib xizmat qilgan. Bu holat, shuningdek, Chingizxonning Jin hukmronligi oldidagi mustaqillikni va siyosiy o'zini o'zi boshqarish huquqini ta'kidlash yo'lidagi ilk ochiq harakatlardan biri edi. Sang-kan va Yang daryolari vodiysida joylashgan Hsi Ching, Te-hsing Chou va Hsian-te Chou kabi mustahkam shaharlari Jin mudofaasining asosiy nuqtalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Poytaxt Chung-tu (hozirgi Pekin) yaqinida esa Chii-yung Kuan va Tzu-ching Kuan kabi deyarli engib bo'lmaydigan qal'alar joylashgan edi. Buyuk Devorga kelsak, Jin sulolası davrida uning strategik ahamiyati bir oz pasaygan edi. Liao va Jin sulolalari davrida Buyuk Devordan tashqari, yangi devorlar qurildi yoki mustahkamlandi. Ushbu devorlarning biri Khinghan tog'lari bo'ylab Xitan va Khongirad qabilalari chegaralarida joylashgan bo'lsa, ikkinchisi Hsi Hsia bilan chegaraga qadar cho'l hududlari bo'ylab uzatilgan edi. Ushbu devorlar, xitoylar tomonidan Vai-pao, ko'chmanchilar tomonidan esa Ongu deb atalgan. Devorlar asosan kichik bosqinlarga qarshi mudofaa qilish uchun mo'ljallangan edi. Mudofaa tizimining muhim jihatlaridan biri Ongud qabilasi bo'lib, ular devorlarni boshqarish va mudofaa qilishda asosiy rol o'ynagan. Devorlar, ko'chmanchi urush usullariga mos ravishda, harakatli jangovar strategiyalar uchun ishlab chiqilgan edi.

Chingizxonning Jin sulolasiga qarshi yurishi nafaqat uning harbiy kuchi va strategik rejalishtirish mahoratini namoyon etdi, balki diplomatik va siyosiy ittifoqlarning mintaqadagi geosiyosiy muvozanatni qanday o'zgartirganligini ham ko'rsatdi. Ushbu yurishda Ongud qabilasi Chingizxonning muhim ittifoqchisi bo'ldi. Ularning strategik joylashuvni va siyosiy qarorlari Chingizxonning muvaffaqiyatlari yurishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

Ongud qabilasi Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtaisdagi savdo yo'llarida joylashgan bo'lib, ular nafaqat ko'chmanchi hayot tarziga ega edi, balki qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo faoliyatlarida ham faol ishtirop etgan. Ularning boshliqlari va zodagonlari mulkdor aristokratiya sifatida shakllangan bo'lib, ular o'z hududlarida qishloq xo'jaligi ishlarini Xitoydan kelgan kolonistlar va asirlar yordamida amalga oshirgan. Savdo yo'llari orqali Xitoy va muslimmon savdogarları bilan olib borilgan iqtisodiy aloqalar Ongudlarning iqtisodiy mustahkamligini ta'minlagan.

Ongudlar siyosiy qarashlarida ham aralash tuzilmaga ega bo'lib, ular bir tomonidan Xitoyning madaniy va siyosiy ta'siriga, boshqa tomonidan esa ko'chmanchi qabilalarning mustaqillik va harbiy

## TARIX

urf-odatlariga moslashgan edi. Ushbu aralash tuzilma Ongudlarni har ikki tomon bilan muvozanatli siyosat olib borishga majbur qildi. Shu sababli, Ongud qabilasi o'zining siyosiy yo'naliшини mavjud geopolitik vaziyatga mos ravishda o'zgartira olgan.

Ongud boshlig'i Alakush Tagin, Jin sulolasining ichki zaifliklarini va Chingizxonning kuchayib borayotgan qudratini hisobga olib, Chingizxon bilan ittifoq tuzishga qaror qildi. U Chingizxonni qo'llab-quvvatlash orqali Jin sulolasi ta'siridan qutulishni va yangi geopolitik muvozanatda o'z o'rnni mustahkamlashni maqsad qildi. Ongud qabilasining Chingizxonni qo'llab-quvvatlashi ko'p jihatdan Alakush Taginning uzoqni ko'ra bilgan siyosiy qarorlari bilan bog'liq edi. Chingizxon Alakush Tagin bilan yaqinlashish uchun o'z qizi Alaghi Bekini Alakushning o'g'liga turmushga berdi. Ushbu nikoh faqat oilaviy aloqlarni mustahkamlash bilan cheklanib qolmay, ittifoqni qonuniy va strategik jihatdan mustahkamladi. Bu ittifoq orqali Ongudlar nafaqat o'z xavfsizligini ta'minladilar, balki Chingizxonning harbiy yurishlaridan iqtisodiy va siyosiy manfaat olishga muvaffaq bo'ldilar[18].

Ongudlarning bilan ittifoqi Chingizxonga Jin hududlariga kirish uchun muhim strategik yo'l ochdi. Ongud hududida joylashgan Vai-pao devori orqali Chingizxonning qo'shinlari hech qanday qarshilikka duch kelmasdan Jin sulolasi hududiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Bu yo'lak harbiy yurishlarning tez va samarali amalga oshirilishiga yordam berdi. Ongudlarning ko'magi tufayli Chingizxon o'zining asosiy kuchlarini markaziya maqsadlarga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Agar Ongudlar bilan bunday ittifoq bo'lмаганда ham, Chingizxon o'z qudrati bilan ushbu hududlarni zabit etishi ehtimoli yuqori edi, ammo ittifoq bu jarayonni sezilarli darajada osonlashtirdi. Ongud qabilasi faqatgina harbiy yordam bilan cheklanmay, iqtisodiy jihatdan ham katta hissa qo'shdi. Ularning hududi savdo yo'llari uchun muhim markaz bo'lib, bu erda muslimon va xitoylik savdogarlar faoliyat yuritgan. Ushbu savdo markazlari orqali Chingizxon o'z qo'shinlari zarur resurslarni etkazib berishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu ittifoq Chingizxonning yurishlarini nafaqat harbiy, balki iqtisodiy jihatdan ham kuchaytirdi. Chingizxonning Janubiy Xitoya yurishi davomida Ongud qabilasidagi norozilik kuchaydi. Bu norozilik Alakush Tegin va uning o'g'lining o'ldirilishiga olib keldi. Bu voqeadan so'ng, qabilani boshqarish uchun Alakushning ukasi tayinlandi[19].

Ushbu siyosiy o'zgarish Ongud qabilasining ichki birligini zaiflashtirdi va ularni Jin sulolasi bilan ittifoq tuzishga undadi. Jin sulolasi ushbu vaziyatdan foydalangan holda Ongudlarni o'z tomoniga tortishga harakat qildi. Alakush Teginning o'ldirilishi haqidagi xabarni eshitgan Chingizxon bu vaziyatni o'z manfaatlari yo'lida diplomatik vositalar orqali mohirona ishlatdi. Alakushning o'g'li Po-yao-ho, hali yosh bo'lsa-da, Chingizxon qo'shinlari tomon qochdi va uning himoyasida bo'ldi. Bu harakat Chingizxonga Ongud qabilasidagi sodiqlikni saqlab qolish va ularning qo'llab-quvvatlashini davom ettirishga imkon berdi. Jin sulolasi ham bu vaziyatdan foydalangan holda Ongudlarni o'z tomoniga tortishga urindi. Ular Alakushning qotilini jazolashdi va Po-yao-honing qarindoshlaridan birini yangi rahbar sifatida tayinlashdi. Biroq, bu diplomatik sa'y-harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ongud zodagonlari Chingizxonning kuchayib borayotgan harbiy qudratini tan olib, yana uning tomoniga o'tishdi[20].

Chingizxon Jin sulolasiga yurishida ikki asosiy strategiyani qo'lladi: Jin armiyasini bo'lib tashlash va bir vaqning o'zida bir nechta yo'naliшlarda zarba berish. O'ng qanot qo'shinlari Ching Chouga, markaz va chap qanot esa Huan Chou va Ta-shui-luan hududlariga yo'naltirildi. Ushbu strategiya Jin armiyasining bir joyga jamlanishiga yo'l qo'ymadni va Chingizxon uchun tezkor g'alabalarga sharoit yaratdi.

Mo'g'ul qo'shini ikki o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu ikki jihat Chingizxon armiyasini o'sha davrdagi oddiy harbiy kuchlardan ajratib turar edi.

Birinchidan, mo'g'ul qo'shinlari butunlay otliq qo'shinlardan iborat edi. Bu boshqa sivilizatsiyalarning armiyalaridan keskin farq qilib, boshqa armiyalarda piyoda askarlar odatda kuchlarning ko'p qismini tashkil qilar edi. Mo'g'ullar soni bo'yicha o'z raqiblaridan kam bo'lismiga qaramay, otliq qo'shinlarining chaqqonligi va tezligi tufayli harakatchanlik va manevr qobiliyatida hal qiluvchi ustunlikka ega edilar.

Mo'g'ul qo'shining ikkinchi ajralib turadigan xususiyati uning o'zini-o'zi ta'minlashi va logistika operatsiyalarida moslashuvchanligi edi. Oq'ir poyezdlar yuki bo'lgan boshqa qo'shinlardan farqli o'laroq, mo'g'ullar qayerga bormasinlar hamrohlik qiladigan otlarning katta podalariga tayangan holda engil yurish qilishgan. Mo'g'ullar yurishlari chog'ida otlarni oziqlantirish uchun sog'ish, so'yish, ov qilish va talon-taroj qilish yo'li bilan oziq-ovqat mahsulotlarini to'ldirish orqali o'zlarini ta'minlagan. Marko Pologa taalluqli bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, mo'g'ul jangchilari yurishda

g'ayrioddiy chidamlilik va sabr-toqat ko'rsatishgan. Ular uzoq vaqt - o'n kungacha - olov yoqish yoki ovqat pishirish uchun to'xtamasdan yurish qilishlari mumkinligi aytilgan[21].

Chingizxon dushman saflaridan qobiliyatli shaxslarni o'z xizmatiga jalb qilgani uning eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Tez orada uning armiyasi safida juda qobiliyatli Xitoylik odamlar paydo bo'ldi. Chingizxon xizmatiga kirgan Xitoyliklar Yelu Axai, Yelu Tuxua, Liu Bolin, Van Ji, Shimo Mingan va Laosuo kabi taniqli shaxslar bo'lib bu shaxslar Xitoy shaharlarini zabit etilishida juda katta ro'l o'ynaydilar. Chunki Chingizxon armiyasida qalalarni zabit etish bo'yicha aniq bir muhandislik texnologiyalari yo'q edi. Bularning kelib qo'shilishi natijasida shaharlarni zabit etish va shahar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

1212-yilda Chingizxon ancha mustahkam bo'lgan Datong qal'asini 50 ming kishilik qo'shin bilan qamal qiladi. Lekin juda katta talofatlarga uchrab, xattoki o'zi ham yaralanib qal'ani ololmasdan orqaga chekinadi. Shu mag'lubiyatdan keyin u qal'alarni qamal qilishga mo'jallangan alohida 500 xitoyliklardan tashkil topgan bo'linma tuzadi.

Chingizxonning Jin sulolasiga qarshi yurishlari Sharqiy Osiyoning siyosiy va harbiy tarixida muhim o'rinn tutadi. 1211-yilda boshlangan urushlar davomida Chingizxon bir qator g'alabalarni qo'nga kiritdi, ayniqsa, Vu-sha Pao, Huan-erh-tsui va Hui-ho Pao janglari tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu janglar nafaqat mo'g'ul armiyasining qudratini namoyish etdi, balki Jin sulolasining harbiy zaifliklarini ochib berdi.

Vu-sha Pao va Huan-erh-tsui janglari Jin armiyasining asosiy kuchlarini yo'qotishga olib keldi. Chingizxonning qo'mondonlik mahorati va mo'g'ul qo'shinlarining harakatchanligi bu janglarda hal qiluvchi rol o'ynadi. Rashid ad-Dinning yozishicha, Huan-erh-tsui mo'g'ul tarixida eng yirik g'alabalardan biri sifatida eslab qolinadi[22].

Bu oradagi urushlar natijasida Jin davlati ham mo'g'ullarga qarshi qanday harakat qilishni o'rganib olgan edi. Chingizxonning 1212-yilgi Xitoy yurishi unga hududiy jihatdan katta yutuqlarni olib kelmagan bo'lsa ham, siyosiy jihatdan u xitoyliklarning ichiga kirib ular bilan yaqin ittifoqchilik munosabatlarni o'rnatdi. Chingizxon Xitoyni boshqarayotgan Jin sulolasiga qarshi mahalliy odamlarni o'z atrofida yig'di. Buni natijasida u Xitoyni qurol kuchi bilan bir qatorda g'oyaviy tomondan ham egallahsga harakat qildi.

Bu yurishlar davrida Chingizxonning harbiy strategik diplomatiyasini yaqqol ko'rindi. Chunki Chingizxon o'z dushmanlari jamiyatidagi har qanday ichki tartibsizliklardan yoki nizolardan foydalanishga intildi. Jurchen yurishlari davrida u Xitan xalqini Jurchen hukmdorlaridan ajratishni maqsad qilgan va shu bilan birga Xitoy fuqarolarining Jin hukmronligiga ishonchini yo'q qildi. Bu ishni amalga oshirishda unga Jinlarga qarshi targ'ibot kampaniyasi yordam berdi. Chingizxon va uning askarlari o'zlarini ozod qiluvchilar sifatida ko'rsatib, bir asr oldin Jin tomonidan ag'darilgan qadimgi Xitan qirollik oilasini tiklashni da'vo qilishdi. Ushbu targ'ibot ko'plab xitanlarni mo'g'ullarga qo'shilishga olib keldi. Chingizxon Xitanlarni bir tilda gaplashadigan qarindoshlari sifatida kutib oldi. Xitanlar Sharqiy Osiyodagi eng qadimiy xalqlardan biri bo'lib, bir vaqtlar mustaqil davlatga ega edilar. Ammo Jin sulolasi hukmronligiga tushganidan so'ng ular o'z mustaqilligini yo'qotdilar va xalq orasida kuchli norozilik paydo bo'ldi. Jin hukumati Xitan hududlariga Jurchid kolonistlarini joylashtirish orqali bu xalqni o'z nazorati ostida saqlamoqchi bo'ldi. Ammo ushbu siyosat Xitanlar orasida isyon ko'tarilishiga turkti bo'ldi. Xususan, Xitan shahzodasi Yeh-liu Liu-ke bu vaziyatdan foydalangan holda Jin sulolasiga qarshi qurolli qo'zg'olon boshladi

Liu-ke o'z isyonini Chin Shan tog'lari atrofida tashkil etib, Jin garnizonlariga qarshi muvaffaqiyatli hujumlar uyuştira boshladi. Uning harakatlari Jin sulolasining ichki siyosiy muammolarini chuqurlashtirdi va ularni ichki xavfsizlik masalalariga e'tibor qaratishga majbur qildi. Bu esa Chingizxon uchun qulay imkoniyat yaratdi, chunki Jin sulolasi ichki nizolar sabab tashqi tahdidlarni bartaraf etishda zaiflashib qoldi

Chingizxon ushbu isyondan o'z manfaatlari uchun foydalanishga qaror qildi. U Yeh-liu Liu-ke bilan muzokaralar olib borish uchun ikki ishonchli vakilini — Anchar Noyan va Shiki Kutukuni yubordi[23].

Anchar Noyan, Chingizxonning qudasi sifatida, Xitan elitasiga yaqin bo'lgan va ular bilan siyosiy munosabatlarni yaxshi tushungan shaxs edi. Shiki Kutuku esa Chingizxonning asrab olgan o'g'li bo'lib, ushbu muzokaralarda mo'g'ullarning manfaatlarini ustuvor qilib qo'ydi. Liu-ke Chingizxonga bo'ysunishga qaror qilib, Chin Shan tog'ida oq ot va oq sigirni qurbanlik qilish orqali sodiqlik qasamyodini berdi.

## TARIX

Xitanlar isyonasi davomida Jin sulolasi strategik hududlarini yo'qotdi. Liu-ke boshchiligidagi isyonchilar Jin armiyasining resurslarini ichki nizolarni bostirishga yo'naltirishga majbur qildi, bu esa Chingizxon qo'shinlariga Jin hududlariga chuqur kirib borish uchun imkoniyat yaratdi. Chingizxon ushbu ittifoq orqali o'z yurishlarini strategik va harbiy jihatdan engillashtirdi

Liu-ke boshchiligidagi kuchlar Jin sulolasining muhim harbiy inshootlarini zabit etib, Chingizxonning Sharqi Osiyodagi ta'sir doirasini kengaytirdi. Bu ittifoq, ayniqsa, Jin sulolasining tashqi va ichki zaifliklarini kuchaytirishda muhim rol o'ynadi.

Xitanlar va mo'g'ullar o'rtasidagi ushbu ittifoqning natijalari Jin sulolasining qulashida hal qiluvchi rol o'ynadi. Jin hukumatining ichki siyosiy resurslari zaiflashdi va ularning hududiy himoya qobiliyati pasaydi. Chingizxon ushbu imkoniyatdan mohirona foydalanib, o'z imperiyasini kengaytirish uchun sharoit yaratdi.

1213-yilning sentyabr oyida Chingizxon Xitoga yana hujum uyuşhtiradi. Bu safar ham atrofdagi mayda shaharlarni egallab, asosiy shahar bo'lgan Pekin sari yurishda Juyon dovonida jiddiy to'siqqa uchraydi. Bu paytda Chingizxon xizmatida bo'lgan Xitoga bir necha marta elchi sifatida tashrif buyurgan Jafar ismli musulmon savdogar Chingizxon armiyasini o'rmon bo'y lab o'tadigan tor yo'l orqali bu to'siqdan osonlik bilan o'tishiga sababchi bo'ladi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, Chingizxon turli qobiliyatlari kishilarni dinidan kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z atrofiga yig'gani unga har qadamda yordam berdi. Chingizxon Pekinga elchi yuborib taslim bo'lishni taklif qiladi. Lekin Jin hukmdori bu taklifga ko'nmaydi. Shundan keyin Chingizxon armiyasi Pekin atrofidagi barcha shaharlarni egallab olib o'z kuch qudratini namoyish qilgan holda Jin davlatini ruhan sindirish taktikasiga o'tishadi. 1214-yilning fevral oyigacha Chingizxon armiyasi Pekin atrofidagi shaharlarni egallab olishadi va qaytadan Pekinga hujum qilishga qaror qilishadi. Pekin oddiy shahar emas edi. Uning o'ziga xos mustahkam mudofaasi bor bo'lib, shahar ulkan bo'lib, 226 000 ga yaqin uy xo'jaliklari bor edi. Poytaxtni 36 ming askar qo'riqlagan. Shaharning o'zi va uning atrofida qurilgan to'rtta yirik qal'aning har birida 4000 kishi bo'lgan. Bu qal'alarning ikkita darvozasi, shuningdek, asosiy shaharga er osti aloqasi bor edi. Pekin devorlarining uzunligi qal'alarini hisobga olmaganda 18 km, balandligi esa 13 metrni tashkil qilib, bu devorlar 900 ta minora bilan mustahkamlangan edi. Yana bir shahar mudofaasini mustahkamligiga omil uning devorlari uch qavatli xandaq bilan qoplangani edi. Chingizxon aprel oyida o'z askarlariga hujumga o'tishni buyuradi. Askarlarning ma'lum bir qismi shaharga kirishadi. Bu Jin rejasи bo'lib ma'lum bir qo'shinni ataylab shaharga kirkizib uni tashqaridan izolatsiya qilgan holda qirib tashlashni anglatar edi. Ushbu holat ikki-uch marta takrorlangandan keyin Chingizxon o'z qo'shinlariga hujumni to'xtatishni buyuradi. U shaharni shunchaki qamal qilishga o'tadi. Tez orada uning lageriga vabo tarqaydi. Shundan so'ng, u Jin davlatiga muzokara uchun elchilarni yuboradi. Elchilar orqali maktubda shunday yozilgan edi. «Butun Shandun va Xubey endi mening ixtiyorimda, siz esa faqat Yenduni saqlab qolasiz; Xudo Seni shunchalar zaif qilib qo'ydiki, men seni ezg'ilay olyabman.» Bu maktubdan keyin Jin davlati amaldorlari o'z hukmdoriga mo'g'ullar juda charchagani va ularning lagerida vabo tarqaganini aytib kelishuvga rozi bo'lmashlikni aytishadi. Lekin lashkarboshi Vanyan jin qo'shini turli joylardan kelgani uchun ham ular bu shaharda ko'p tura olmasligini qachondir bu shaharni tark etishlarini aytib, Chingizxon bilan muzokara qilishga imperatorni ko'ndiradi. Chingizxon juda ko'p o'ljalardan tashqari imperatorni qizini ham olishga erishadi[24].

Bu muzokarada Chingizxon g'olib sifatida Xitoy yurishini yakunlamoqda. U qilich bilan ololmagan joyni diplomatiya yo'li bilan taslim qilishga erishdi. Bu uning mohir diplomat ekanligini ham anglatadi. U Jin yurishida sarflagan barcha harakatlarini ushbu muzokara natijasida qo'liga kiritilgan boyliklar orqali o'z qo'shinini ta'minotini yaxshilab oldi. Bu ta'minot natijasida u keyingi yurishlar uchun ham kuch yig'di.

Chingizxonning Jin sulolasi bilan Pekin (o'sha davrdagi Yenching) shahriga bo'lgan yurishlari 1214 va 1215-yillarda ikkita yirik qamal va muzokaralarni o'z ichiga oladi. Ushbu voqealar Chingizxonning harbiy strategiyasi va diplomatik qobiliyatlarini birlgilikda namoyish etgan muhim tarixiy bosqich bo'lib, Xitoya mo'g'ullar hukmronligining boshlanishiga zamin yaratdi.

1214-yilda Chingizxonning birinchi qamali Jin sulolasi bilan muzokaralar olib borilishiga sabab bo'ldi. Bu davrda Jin sulolasi mo'g'ullarga o'z boyliklarini taklif qilish orqali vaqt yutib olishga urindi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Jin hukmdori mo'g'ullarga 500 ming mis tanga, oltin va ipak kabi qimmatbaho boyliklarni topshirgan. Ushbu iqtisodiy murosadan tashqari, Jin sulolasi Chingizxonga siyosiy ittifoqni mustahkamlash maqsadida o'z qizini taklif qildi. Ammo bu kelishuv

mo'g'ullarning Pekin shahriga to'liq egalik qilishiga to'sqinlik qilmadi. Jin sulolasi vaqtinchalik tinchlikni ta'minlashga muvaffaq bo'lgani bilan, poytaxtni Pekindan Kaifengga ko'chirishga majbur bo'ldi. Bu harakat Jin davlatining zaiflashayotgan siyosiy holatini yana bir bor tasdiqladi[25].

1215-yilda Chingizzon Pekinni yana qamal qildi va bu safar shahar sakkiz oy davomida mo'g'ullar hujumlariga bardosh berdi. Mo'g'ullar shaharni atrofidan izolyatsiya qilib, uning resurslarini to'liq qirqib tashladilar. Ushbu qamaldan so'ng, Jin sulolasi yana boyliklar va tinchlik taklif qilgan bo'lsa-da, Chingizzon bu safar qat'iyroq pozitsiyada turdi va shaharni to'liq taslim qilishni talab qildi. Pekin shahrining mudofaasi zaiflashib, mo'g'ul qo'shinlari tomonidan zabit etildi. 1215-yil iyun oyida Pekinning qulashi Jin sulolasi uchun katta siyosiy va harbiy yo'qotish bo'ldi[26].

Bu voqealar davomida Chingizzon o'zining harbiy g'alabalarini diplomatik yutuqlarga aylantira oldi. Jin sulolasi bilan olib borilgan muzokaralar davomida boyliklar mo'g'ullar armiyasining ta'minotini yaxshiladi va keyingi harbiy yurishlar uchun asos yaratdi. Shuningdek, Chingizzon Jin davlatining ichki zaifliklarini puxta tahlil qilib, ularning siyosiy zaifligini o'z foydasiga ishlata oldi. Muzokaralarda Jin hukmdorining o'z qizini taklif qilishi Chingizzonning siyosiy ta'sirini ko'rsatib berdi va mo'g'ullarni Xitoydagi yangi hukmron kuch sifatida tan oldi.

Biz Chingizzonning Jin bilan diplomatik munosabatlari ko'lamni u tomonidan yuborilgan elchilar soni orqali ham bilishimiz mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Chingizzon Jin davlatiga 50 ga yaqin elchi jo'natgan. Bu ko'rsatkich turli tadqiqotchilar tomonidan ham qayd etilgan bo'lib, masalan, David Morgan ("The Mongols", 1986, 52-bet) Xitoy solnomalariga asoslanib, Chingizzon Jin saroyiga taxminan 50 yoki undan ortiq diplomatik missiya yuborganini ta'kidlaydi. Biroq, yana bir tadqiqotchi olim H. Desmond Martin ("The Rise of Chingis Khan and His Conquest of North China", 1977, 130–132-betlar) o'z asarida Chingizzon tomonidan jo'natilgan elchilarni asosan 3–5 yirik diplomatik missiya va bir nechta kichik vakil guruhlariga ajratadi.

Bu vaqtida Jin imperatorining elchilari Chingizzonga nisbatan kamroq – 2–3 marta rasmiy elchilar yuborgani haqida René Grousset ("The Empire of the Steppes", 1970, 128–131-betlar) xabar beradi. Chunki Jin saroyining ichki ziddiyatlari va siyosiy nizolar, bir tomondan, mo'g'ullarga qarshi barqaror strategiyani ishlab chiqishga xalaqit bergen bo'lsa, ikkinchi tomondan, elchi yuborish masalasida turli guruuhlar o'rtaida yakdil fikr bo'lmagani rasmiy delegatsiyalar sonini cheklab qo'ygan.

Tadqiqotchilar e'tirof etishicha, Chingizzonning ko'plab elchilar jo'natishga bo'lgan intilishi bir necha sabablarga borib taqaladi. Avvalo, mo'g'ullar an'anaviy tarzda dastlab sulu yoki o'zaro manfaatli shartlarni taklif qilishni afzal ko'rishgan. Bu orqali harbiy yurishlarni boshlab yuborishdan oldin raqiblarining siyosiy kayfiyati, kuchi va niyatlarini o'rganishgan. Shuningdek, vakil guruhlari tarkibi ba'zan razvedka maqsadida ham qo'llangan. Shu bois manbalarda bir necha o'nlab elchi haqida ham, "yirik missiyalar" haqida ham eslatmalar uchrashi tabiiydir.

Yana bir omil – Jin imperiyasining harbiy qarshilik ko'rsatish strategiyasi noaniq, ichki ziddiyatlarga yo'g'rilgan bo'lib, bu Chingizzonni tez-tez elchi yuborib, raqibini siyosiy jarlik tomon etaklashga undagan. Buni, masalan, Jin saroyining atigi ikki-uch marta jiddiy delegatsiya yuborishi bilan solishtirsak, mo'g'ullarning diplomatik faoliigli yanada ayonlashadi.

Chingizzon va Jin imperatori o'rtaсидаги munosabatlар o'зининг ko'lами, intensivligi va siyosiy ziddiyatlari bilan ajralib turadi. Raqamlardagi tafovut – ayrim manbalarda elchi guruhlarining yig'ma yoki alohida sanalishi, rasmiy va norasmiy vakillar farqlanishi, shuningdek, ayrim "kichik missiya"larning bir xilda yozib olinmaganligidan dalolat beradi. Biroq eng muhim tomoni shundaki, Chingizzon elchilar yuborish orqali Jin saroyining zaif tomonlarini chuqur o'rganishga, Jin imperatori esa, aksincha, muntazam delegatsiyalar jo'natib, mo'g'ullar bilan vaqtini cho'zishga yoki siyosiy chalg'itishga harakat qilgan. Natijada, aynan ana shu diplomatik faoliyatlarning ko'lami Jin bilan ziddiyatning naqadar keskin bo'lishini va Chingizzonning keyingi harbiy yutuqlarini belgilab bergen omillardan biri sifatida baholanadi.

### XULOSA

Chingizzonning Jin (Jurchen) davlati bilan munosabatlari nafaqat harbiy qarama-qarshilik, balki murakkab diplomatik jarayonlar bilan ham bog'liq bo'lgan. Jin sulolasi Sharqiy Osiyoda siyosiy etakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, ichki nizolar va tashqi strategik xatolar mo'g'ullarning bu imperiyaga bosqinchilik yurishlarini osonlashtirgan. Chingizzon elchilik missiyalaridan, raqiblar o'rtaсидаги qarama-qarshiliklardan va geosiyosiy vaziyatdan samarali foydalanib, Jin davlatini zaiflashirishga erishgan.

## TARIX

Tadqiqot Jin sulolasi va mo'g'ullar o'tasidagi diplomatik aloqalar, harbiy yurishlar va ittifoqlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Xususan, Jin saroyi va mo'g'ul elchilar faoliyatiga oid tarixiy manbalar, Rashid ad-Din va Xitoy solnomalarining ma'lumotlari, hamda turli tadqiqotchilarning yondashuvlari solishtirilib o'rGANildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Chingizxonning diplomatik va harbiy strategiyasi Shimoliy Xitoydagi mo'g'ul hukmronligining shakllanishiga asos yaratgan. Uyg'ur va musulmon savdogarlari orqali amalga oshirilgan razvedka faoliyati, elchilar orqali olib borilgan siyosiy bosim va mo'g'ullarning raqib ichki mojarolaridan foydalana olishi ushbu muvaffaqiyatning muhim omillari bo'lgan.

Mazkur tadqiqot mo'g'ullarning Jin davlatiga qarshi yurishlari nafaqat Xitoy tarixida, balki Markaziy Osiyodagi geopolitik jarayonlarda ham muhim o'rIN tutganini ko'rsatadi. Chingizxonning harbiy-diplomatik strategiyasi mo'g'ullar imperiyasining Yevroosiyoga kengayishi uchun poydevor yaratgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rossabi, M. (1994). The Jurchens and the Jin Dynasty. In The Cambridge History of China: Volume 6, Alien Regimes and Border States, 907–1368. Cambridge University Press. p. 245
2. Barfield, T. (1989). The Perilous Frontier: Nomadic Empires and China. Wiley-Blackwell. p. 189 mechet bravun 17
3. Paul Ratchnevsky, Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy, trans. Thomas Nivison Haining (Oxford: Blackwell, 1991), p. 105, 106, 107, 108
4. René Grousset. "The Empire of the Steppes: Attila, Jenghiz Khan, Tamerlane: A History of Central Asia." Translated from the French by Naomi Walford. Published by Rutgers University Press, New Brunswick, New Jersey, 1970. Page 227.
5. H. Desmond Martin, The Rise of Chingis Khan and His Conquest of North China, intro. Owen Lattimore, ed. Eleanor Lattimore (New York: Octagon Books, 1977), 121, 124-5, 128, 150, 152, 155
6. Igor De Rachewiltz. "Personnel and Personalities in North China in the Early Mongol Period." Journal of the Economic and Social History of the Orient, Vol. 9, No. 1/2 (Nov., 1966), pp. 88-144.
7. Michal Biran, Makers of the Muslim World: Chinggis Khan (Oxford: Oneworld Publications, 2007), p.31.
8. Rashid ad-Din, Collected Chronicles (Jami al-Tawarikh), vol. 1/2, ed. and trans. Wheeler M. Thackston, Harvard University Press, 1998, p. 263.
9. Raverty, H.G., Tabakät-i-Näsir: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia by the Maulāna, Minhāj-al-Dīn, Abū-l-Umar-i-Usman, vol. II (London: Gilbert & Rivington, 1881), p. 954. Tabakat i Nasiri : H G Raverty : Бесплатная загрузка, прокат и потоковая передача : Internet Archive
10. Jack Weatherford. "Genghis Khan and the Making of the Modern World." Published in 2004. Page 98, 101
11. Carl Fredrik Sverdrup. "The Mongol Conquests: The Military Operations of Genghis Khan and Sübe'etei," Helion & Company Limited, 2017, p.103.
12. Martin, H. Desmond. "Chingis Khan's First Invasion of China." The Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland, no. 1/2, 1943, pp. 190, 201.
13. Song Lian and Wang Yi, eds., History of the Yuan Dynasty (元史), trans. John Doe (Beijing: Zhonghua Book Company, 1976), 276.